



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

IQTISODIY ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHNING IJTIMOIY-HUQUQIY ASOSLARI

Abdulfaizova Durdona Ikromjon qizi

University of Economics and Pedagogy, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashning ijtimoiy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy zo‘ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uning oilaviy munosabatlar va inson huquqlariga ta‘siri yoritilib, xalqaro huquqiy hujjatlar hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashning normativ-huquqiy mexanizmlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy zo‘ravonlik, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-huquqiy asoslar, gender tenglik, oilaviy zo‘ravonlik, ijtimoiy institutlar, iqtisodiy mustaqillik.

СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОМУ НАСИЛИЮ

Абдулфаизова Дурдона Икромжон кизи

University of Economics and Pedagogy, преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются социально-правовые основы противодействия экономическому насилию. В исследовании раскрываются социально-философская сущность экономического насилия, его влияние на семейные отношения и права человека, а также рассматриваются нормативно-правовые механизмы предупреждения и противодействия экономическому насилию на основе международно-правовых документов и действующего законодательства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: экономическое насилие, семейные отношения, социально-правовые основы, гендерное равенство, домашнее насилие, социальные институты, экономическая независимость.

SOCIO-LEGAL FOUNDATIONS FOR COMBATING ECONOMIC VIOLENCE

Abdulfaizova Durdona Ikromjon qizi

University of Economics and Pedagogy, Lecturer

Abstract

This article analyzes the socio-legal foundations of combating economic violence. The study examines the socio-philosophical essence of economic violence and its impact on family relations and human rights. Furthermore, the normative and legal mechanisms for preventing and combating economic violence are explored on the basis of international legal instruments and the current legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: economic violence, family relations, socio-legal foundations, gender equality, domestic violence, social institutions, economic independence.

Zamonaviy global taraqqiyot sharoitida inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, gender tengligi tamoyillarini jamiyat hayotiga to‘laonli joriy etish, shuningdek, oilaviy munosabatlarni jamiyatning mustahkam va barqaror ijtimoiy instituti sifatida rivojlantirish masalalari nafaqat xalqaro hamjamiyat, balki milliy davlatlarning strategik siyosiy kun tartibidagi eng dolzarb yo‘nalishlari qatoridan o‘rin egalladi. Ayni shu globallashuv va ijtimoiy islohotlar jarayonida oila muhitida yuz beradigan zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurashish, uning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish o‘ta muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda olib borilayotgan keng ko‘lamli tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, an‘anaviy jismoniy, psixologik va jinsiy zo‘ravonlik turlari bilan qator qo‘yilgan holda, iqtisodiy zo‘ravonlik ham insonning asosiy huquq va erkinliklariga bevosita tahdid soluvchi, chuqur ildiz otgan murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo sifatida ilmiy va amaliy e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda. Xususan, nufuzli xalqaro tashkilotlar va zamonaviy ilmiy doiralar iqtisodiy zo‘ravonlikni shaxsning moliyaviy resurslarga nisbatan egalik huquqidan, ulardan erkin foydalanish imkoniyatidan mahrum qilish, shuningdek, mustaqil iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini qonunga xilof ravishda cheklash yoki

to'liq nazorat qilish orqali amalga oshiriladigan maxsus zo'ravonlik shakli sifatida ilmiy jihatdan asoslangan holda talqin qilmoqdalar [1].

Iqtisodiy zo'ravonlikning asosiy xavfi va murakkabligi shundaki, u boshqa turdagi zo'ravonlik shakllariga nisbatan ko'proq yashirin xususiyatga ega bo'lib, jabrlanuvchi tomonning moliyaviy qaramligini keskin oshiradi. Bu holat shaxsning mustaqil hayot kechirish va o'zini o'zi ta'minlash imkoniyatlarini cheklab, natijada oilaviy munosabatlardagi tenglik va adolat tamoyillarining deformatsiyasiga olib keladi. Olib borilgan ilmiy kuzatishlar va empirik tadqiqotlar natijalari tasdiqlaydiki, iqtisodiy zo'ravonlikning salbiy oqibatlari faqat shaxsning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligi bilan cheklanib qolmaydi; u, shuningdek, jabrlanuvchining psixosotsial holatiga, jamiyatdagi ijtimoiy faolligiga va umuman oilaviy munosabatlarning barqarorligiga ham jiddiy putur yetkazadi [2]. Ayni shu holatlar sababli, iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi samarali kurashish masalasi zamonaviy davrda nafaqat inson huquqlarini himoya qilish, balki kambag'allik darajasini pasaytirish, gender tengligini ta'minlash va oila institutini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining ajralmas va strategik tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Zamonaviy global huquqiy-falsafiy paradigmada Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasi (CEDAW), Pekin Harakatlar Platformasi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida ayollarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va zo'ravonlikning har qanday ko'rinishlarini bartaraf etish inson huquqlari evolyutsiyasining eng dolzarb aksiologik vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilgan [8]. Jahon hamjamiyatining ko'p yillik va zamonaviy tajribasi shuni dalillaydiki, iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashish faqatgina represiv xarakterdagi huquqiy javobgarlik choralarini qat'iylashtirish bilan cheklanib qolmasligi, balki ushbu murakkab ijtimoiy hodisani hal etishda normativ-huquqiy, institutsional va ma'naviy-axloqiy omillarni o'zida mujassam etgan kompleks ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish orqali haqiqiy samaradorlikka erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi kontekstida ham inson qadriyatini ulug'lash, gender adolatini ta'minlash va xotin-qizlarni har qanday tazyiq hamda zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilish milliy davlat siyosatining strategik va ustuvor yo'nalishlari qatoridan mustahkam o'rin egallagan. Xususan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi maxsus qonunlar, shuningdek, Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mustahkam konstitutsiyaviy va huquqiy kafolatlari nazariy hamda amaliy jihatdan mustahkamlangan [13; 14]. Bundan tashqari, 2023-yilda oilaviy zo'ravonlik holatlari uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikning tubdan qayta ko'rib chiqilishi va kuchaytirilishi ushbu sohada islohotlarning sifat jihatdan yangi, yuksak bosqichiga o'tishini belgilab berdi.

Tadqiqot doirasida iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning ijtimoiy-huquqiy asoslari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar prizmasidan ko'rib chiqiladi. Bunda ushbu jarayonning normativ-huquqiy, institutsional va aksiologik komponentlari o'zaro dialektik bog'liqlik va determinatsiya holatida kompleks tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ilmiy-falsafiy diskursda iqtisodiy zo'ravonlik muammosi so'nggi o'n yilliklar davomida oilaviy zo'ravonlikning mustaqil va o'ziga xos fenomeni sifatida konseptualizatsiya qilinib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Ushbu murakkab hodisaning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy o'lchamlari bugungi kunda turli fanlararo tadqiqotlar doirasida chuqur o'rganilmoqda. Genetik jihatdan olib qaralganda, mazkur tushuncha dastlab oilaviy munosabatlar tizimidagi moliyaviy nazorat mexanizmlari va iqtisodiy qaramlik muammolarini o'rganish jarayonida shakllangan edi. Biroq, zamonaviy falsafiy va sotsiologik tafakkurda u endilikda insonning fundamental huquqlari, gender adolati hamda ijtimoiy adolat kabi aksiologik kategoriyalar bilan uzviy va dialektik bog'liqlikda namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin etilmoqda.

Iqtisodiy zo'ravonlik fenomenining nazariy-metodologik va gnoseologik poydevorlarini shakllantirish jarayonida A.E. Adamsning ilmiy merosi alohida va fundamental ahamiyatga ega. Uning konseptual izlanishlarida iqtisodiy zo'ravonlik shaxsning moliyaviy resurslarga nisbatan egalik huquqidan, ularni erkin tasarruf etish imkoniyatidan mahrum qilish, shuningdek, iqtisodiy avtonomiyasini restriksiya (cheklash) qilishga qaratilgan kompleks va manipulyativ xulq-atvor strategiyalari yig'indisi sifatida tavsiflanadi [1].

J. Postmus va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda iqtisodiy zo'ravonlik oilaviy munosabatlardagi ko'pincha yashirin (laten) xususiyatga ega bo'lgan, ammo uzoq

muddatli va chuqur destruktiv oqibatlarni keltirib chiqaruvchi alohida fenomen sifatida baholanadi [2]. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ushbu turdagi zo'ravonlik jabrlanuvchining moliyaviy avtonomiyasini barbad qilish orqali, uning tajovuzkor munosabatlar doirasidan xalos bo'lish va emansipatsiyalanish imkoniyatlarini keskin darajada pasaytiradi. Mazkur nazariy yondashuv iqtisodiy zo'ravonlik hodisasini nafaqat tor ma'nodagi iqtisodiy muammo, balki oilaviy va ijtimoiy makonda hokimiyatni saqlash hamda shaxsni bo'ysundirishga qaratilgan murakkab ijtimoiy nazorat va dominatsiya mexanizmi sifatida falsafiy talqin qilishga keng yo'l ochib beradi.

N. Sharp-Jeffs tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy zo'ravonlik fenomeni gender asimmetriyasi va jinsiy tengsizlikning ijtimoiy-falsafiy kontekstida tahlil qilinib, uning ayollarning iqtisodiy subyektivligi va imkoniyatlarini realizatsiya qilish jarayonidagi cheklovchi (restriktiv) roli chuqur yoritilgan [4]. Tadqiqotchi xulosalariga asoslanib ta'kidlash joizki, ushbu turdagi zo'ravonlik o'zining kumulyativ (yig'indili) xususiyati tufayli ko'pincha jismoniy yoki psixologik tajovuzning boshqa shakllari bilan dialektik bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Natijada, u jabrlanuvchi shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga nafaqat qisqa muddatli, balki uzoq muddatli destruktiv ta'sir ko'rsatib, uning jamiyatdagi mustaqil faoliyat yuritishiga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Iqtisodiy zo'ravonlik fenomenining ijtimoiy-huquqiy determinatsiyasini o'rganishda global miqyosdagi nufuzli tashkilotlarning ilmiy-analitik izlanishlari alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon banki va UN Women kabi xalqaro strukturalar ekspertlari tomonidan olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotlarda iqtisodiy zo'ravonlik shaxsning fundamental huquq va erkinliklariga nisbatan qo'pol tajovuz hamda inson qadriyatiga tahdid sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu salbiy ijtimoiy hodisa bilan kurashishda nafaqat normativ-huquqiy reglamentatsiyani takomillashtirish, balki kuchli va samarali institutsional himoya tizimlarini shakllantirishning dolzarb ekanligi qat'iy ta'kidlanadi [12].

Ijtimoiy-huquqiy institutlarning funksional faoliyatini falsafiy va sotsiologik tahlil qilishda esa neo-institutsionalizm maktabining yirik vakili Duglas Nort (D. North)ning fundamental ilmiy qarashlari mustahkam metodologik poydevor vazifasini o'taydi. Mazkur olim jamiyatdagi institutlarni insonlarning o'zaro ta'siridagi "o'yin qoidalari" majmui sifatida konseptualizatsiya qilib, rasmiy (qonunchilik, davlat organlari) va norasmiy (an'analar, axloqiy me'yorlar) institutlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi hal qiluvchi rolini chuqur asoslab bergan [6]. Aynan shu nazariy yondashuv iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashish tizimini normativ-huquqiy va ijtimoiy institutlarning dialektik birligi va o'zaro ta'siri doirasida kompleks tahlil qilishga keng ilmiy imkoniyat yaratadi.

Milliy ilmiy-falsafiy va sotsiologumanitar maktab doirasida oila institutining barqarorligi, gender adolati va xotin-qizlarni har qanday tazyiqlardan himoya qilish masalalari yuzasidan qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, gender siyosatini rivojlantirish hamda ayollar huquqlarini kafolatlashga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ushbu sohani tartibga solishning huquqiy va ijtimoiy regulativ mexanizmlari muayyan darajada o'rganilgan [14]. Biroq, iqtisodiy zo'ravonlik fenomenining aynan ijtimoiy-huquqiy fundamentlari, shuningdek, uning normativ-huquqiy, institutsional va aksiologik (qadriyatli) komponentlarining o'zaro dialektik bog'liqligi yagona kompleks tizim sifatida hali ham konseptual jihatdan yetarli darajada o'z aksini topmagan.

Mavjud ilmiy adabiyotlarning keng ko'lamli tahlili shuni dalillaydiki, avvalgi izlanishlarda iqtisodiy zo'ravonlikning asosan iqtisodiy va gender aspektlariga urg'u berilgan. Shu bilan birga, ushbu murakkab ijtimoiy hodisani ijtimoiy-falsafiy va huquqiy paradigmalar integratsiyasi (sintezi) asosida tadqiq etish zarurati bugungi kunda ham o'zining gnoseologik dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa, zamonaviy O'zbekiston jamiyatining sotsiomadaniy va ma'naviy kontekstida iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashish mexanizmlarini normativ-huquqiy baza, faol ijtimoiy institutlar va jamiyatdagi qadriyatlar tizimi (aksiologiya) birligi va o'zaro determinatsiyasi doirasida tahlil qilishga keskin ilmiy-amaliy ehtiyoj mavjud.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu ilmiy izlanishning metodologik poydevorini iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning ijtimoiy-huquqiy fundamentlarini tizimli va har tomonlama tahlil qilish, shuningdek, ushbu fenomenning zamonaviy O'zbekiston jamiyatidagi sotsiomadaniy va huquqiy o'ziga xosliklarini aniqlash maqsadida ijtimoiy-falsafiy hamda umumilmiy kognitiv metodlarning integrativ kompleksi tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida yetakchi metodologik yo'nalish sifatida dialektik usul tanlab olindi. Ushbu metodologik yondashuv orqali iqtisodiy zo'ravonlik ijtimoiy munosabatlar tizimidagi doimiy harakatlanuvchi va ko'p o'lchamli hodisa sifatida falsafiy tahlilga tortildi. Dialektika tamoyillari iqtisodiy

zoʻravonlikning genezisi (vujudga kelish omillari), uning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar, shuningdek, ushbu salbiy jarayonning ijtimoiy va huquqiy oqibatlari oʻrtasidagi chuqur sabab-oqibat bogʻliqliklarini ochib berishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, iqtisodiy zoʻravonlikka qarshi kurashish amaliyotida yuzaga keladigan obyektiv ziddiyatlar, xususan, qabul qilingan huquqiy normalar (*de jure*) va real ijtimoiy amaliyot (*de facto*) oʻrtasidagi mavjud tafovutlar ham aynan dialektik qarama-qarshiliklar qonuniyatlariga asoslanib, chuqur va tanqidiy tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tizimli metodologik yondashuvdan unumli foydalanish iqtisodiy zoʻravonlikka qarshi kurashish mexanizmlarini izolyatsiyalangan elementlar emas, balki yagona, murakkab tuzilgan ijtimoiy-huquqiy makrotizim sifatida oʻrganishga imkon yaratdi. Mazkur metodologik prinsip asosida kurashish jarayonining normativ-huquqiy, institutsional va aksiologik komponentlari ularning dialektik oʻzaro bogʻliqligi va integrativ holati doirasida chuqur tahlil qilindi. Natijada, ushbu komponentlarning oilaviy munosabatlarning barqarorligi va ijtimoiy uygʻunligini taʼminlashdagi fundamental oʻrni ilmiy jihatdan baholandi.

Tadqiqotning metodologik arsenalida komparativ (qiyosiy) tahlil usuli muhim oʻrin tutib, u orqali iqtisodiy zoʻravonlikka qarshi kurashishning transmilliy (xalqaro) va milliy huquqiy fundamentlari chuqur kontrastiv tahlil qilindi. Xususan, ilmiy izlanish davomida Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender va ayollar huquqlariga oid fundamental hujjatlari, “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisida”gi (CEDAW) Konvensiya, nufuzli xalqaro institutlarning metodik tavsiyalari hamda Oʻzbekiston Respublikasining ushbu sohani tartibga soluvchi milliy normativ-huquqiy bazasi oʻzaro qiyosiy tahlil etildi. Ushbu komparativ yondashuv natijasida milliy qonunchilik tizimining evolutsiyon rivojlanish dinamikasi, shuningdek, uni zamonaviy global standartlar darajasida takomillashtirish va modernizatsiya qilish zarur boʻlgan ustuvor yoʻnalishlari ilmiy asosda identifikatsiya qilindi.

Koʻrsatilgan metodlarning oʻzaro metodologik sintezi iqtisodiy zoʻravonlikka qarshi kurashishning ijtimoiy-huquqiy fundamentlarini kompleks va har tomonlama tadqiq etish, amaldagi mexanizmlarning funksional samaradorligini baholash, shuningdek, ularni takomillashtirish yuzasidan chuqur ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Iqtisodiy zoʻravonlik fenomenining ijtimoiy-ontologik mohiyatini chuqur tushunish va tahlil qilishda fransuz sotsiologi va faylasufi Pyer Burdye (P. Bourdieu) tomonidan ishlab chiqilgan “ramziy (simvolik) zoʻravonlik” konsepsiyasi muhim metodologik va gnoseologik ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariy paradigma asosida taʼkidlash joizki, zoʻravonlik har doim ham bevosita jismoniy yoki psixologik bosim shaklida namoyon boʻlavermaydi; u koʻpincha yashirin iqtisodiy va madaniy kapital mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Bunday vaziyatda iqtisodiy resurslar ustidan oʻrnatilgan monopoliya va nazorat ijtimoiy hukmronlik vositasiga aylanib, jabrlanuvchining subyektiv avtonomiyasini va mustaqil hayotiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini restriksiya qiladi.

Zamonaviy ilmiy-falsafiy adabiyotlarda iqtisodiy zoʻravonlikning asosiy manifestatsiya shakllari sifatida moliyaviy nazorat, iqtisodiy ekspluatatsiya va iqtisodiy sabotaj kabi kategoriyalar ajratib koʻrsatiladi. Xususan, moliyaviy nazorat shaxsning daromad manbalari va xarajatlar dinamikasi ustidan total nazorat oʻrnatish orqali ifodalanadi. Iqtisodiy ekspluatatsiya esa jabrlanuvchining moddiy resurslaridan zoʻravonlik subyekti tomonidan oʻz shaxsiy manfaatlari yoʻlida instrumental foydalanishni anglatadi. Iqtisodiy sabotaj tushunchasi oʻz navbatida, jabrlanuvchining mehnat faoliyatiga kirishishi, taʼlim olishi yoki mustaqil daromad manbalariga ega boʻlishi kabi ijtimoiy mobillik va rivojlanish imkoniyatlariga sunʼiy toʻsiqlar yaratish va ularni bloklashda namoyon boʻladi.

Huquqiy-falsafiy diskurs nuqtai nazaridan, iqtisodiy zoʻravonlik bevosita shaxsning mulkiy huquqlari, mehnat qilish imkoniyati, iqtisodiy faoliyat bilan erkin shugʻullanish kafolatlari hamda insonning daxlsiz qadr-qimmatini himoya qiluvchi fundamental huquqlarning qoʻpol buzilishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu epistemologik jihatdan, iqtisodiy zoʻravonlikka qarshi kurashish faqatgina oilaviy munosabatlarni normativ tartibga solish doirasidagi masala emas, balki inson huquqlari va erkinliklarini taʼminlashning eng dolzarb va ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida konseptualizatsiya qilinishi zarur.

Soʻnggi yillarda global huquqiy amaliyot va xalqaro standartlarda iqtisodiy zoʻravonlik oilaviy tajovuzning mustaqil va oʻziga xos shakli sifatida rasman eʼtirof etilmoqda. Ushbu tendensiya iqtisodiy zoʻravonlikka qarshi kurashishning normativ-huquqiy fundamentlarini takomillashtirish, jabrlanuvchilarni

himoya qilish mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamlash, shuningdek, shaxsning iqtisodiy avtonomiyasini ta'minlashga qaratilgan kompleks choralarni rivojlantirish zaruratini obyektiv ravishda yuzaga keltirmoqda.

Bizningcha, iqtisodiy zo'ravonlikni yakkagina iqtisodiy yoki tor ma'nodagi huquqiy kategoriya sifatida reduksionistik talqin qilish ushbu fenomenning chuqur mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Mazkur hodisa iqtisodiy resurslar, ijtimoiy hokimiyat va huquqiy imkoniyatlarning o'zaro determinatsiyasi natijasida shakllanuvchi murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy jarayon hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning amaliy samaradorligi bevosita normativ-huquqiy mexanizmlar, faol ijtimoiy institutlar va jamiyatdagi qadriyatlar tizimi o'rtasidagi sinergetik va uyg'un faoliyatga bog'liqdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, gender adolatini ta'minlash va oilaviy institutda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish strategik ustuvorlikka ega bo'lib, ushbu kontekstda iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning normativ-huquqiy fundamentlari bosqichma-bosqich va izchil takomillashtirib borilmoqda. Ushbu dinamik jarayonda universal xalqaro huquqiy standartlar va milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimining dialektik uyg'unligi asosida iqtisodiy tajovuzkorlikning prevensiyasi, jabrlanuvchilarga kompleks yordam ko'rsatish hamda huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlovchi mexanizmlarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning eng oliy va fundamental konstitutsiyaviy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining aniq va mustahkam ifodasini topgan. Xususan, Asosiy Qomusimizdagi inson qadr-qimmatini ulug'lash, tenglik va har qanday kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik kabi aksiologik tamoyillarga oid imperativ normalar har bir fuqaroning erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, qonuniy mulkka egalik qilishi hamda o'z mehnati samaralaridan mustaqil ravishda foydalanish huquqlarini yuridik jihatdan kafolatlaydi [13]. Aynan shu konstitutsiyaviy normalar iqtisodiy zo'ravonlikning istalgan ko'rinishini nafaqat oilaviy nizolar, balki insonning fundamental huquq va erkinliklariga qilingan bevosita tajovuz sifatida huquqiy va falsafiy baholash uchun mustahkam aksiologik va yuridik poydevor yaratib beradi.

Iqtisodiy zo'ravonlik fenomeniga qarshi kurashishning maxsus normativ-huquqiy va aksiologik fundamentlari 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida o'zining aniq va mustahkam ifodasini topgan. Mazkur qonun hujjatida "tazyiq va zo'ravonlik" kategoriyasi kengaytirilgan talqin asosida yoritilib, xotin-qizlarning fundamental huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid ravishda zarar yetkazuvchi har qanday xatti-harakatlar davlat proteksionizmi va huquqiy muhofaza obyekti sifatida belgilab qo'yilgan [9]. Bundan tashqari, ushbu qonun himoya orderi (proteksion order) institutini huquqiy amaliyotga joriy etish orqali zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni huquqiy himoya qilishning innovatsion va samarali mexanizmini shakllantirishga erishdi.

Shu bilan bir qatorda, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun iqtisodiy munosabatlar tizimida gender adolatini va tenglikni ta'minlashning fundamental huquqiy va sotsiologik poydevorlaridan biri hisoblanadi. Mazkur qonun hujjati mehnat munosabatlari, ta'lim olish, tadbirkorlik faoliyati va boshqa iqtisodiy sohalarida jinslar o'rtasida teng imkoniyatlar va sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi [14]. Aynan shu qoidalarining mavjudligi iqtisodiy zo'ravonlik holatlarining oldini olishga xizmat qiluvchi preventiv xarakterdagi huquqiy-institutsional instrumentariy sifatida namoyon bo'ladi va jamiyatda iqtisodiy muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan.

2023-yil O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishning yangi, sifat jihatidan yuksak bosqichiga o'tishini belgilab berdi. Qonunchilik bazasiga kiritilgan fundamental o'zgarishlar natijasida oilaviy tajovuzkorlik uchun ma'muriy va jinoiy-huquqiy javobgarlikning maxsus institutsional mexanizmlari joriy etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodeksiga kiritilgan innovatsion normalar zo'ravonlik xatti-harakatlarining retsidiv xarakteri yoki og'ir ijtimoiy xavfli oqibatlariga sabab bo'lgan holatlarda javobgarlikni tubdan kuchaytirishga xizmat qildi [16].

Ushbu qonunchilik islohotlarining metodologik va amaliy ahamiyati shundaki, zo'ravonlikka qarshi kurash faqatgina repressiv paradigma bilan cheklanib qolmasdan, balki preventiv va protektiv choralar tizimini ham o'zida mujassam etdi. Natijada iqtisodiy zo'ravonlik qurbonlarini erta aniqlash hamda ularga psixologik, huquqiy va ijtimoiy reabilitatsiya yordamini ko'rsatish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Bu holat, o'z navbatida, mamlakatda zamonaviy xalqaro huquqiy standartlarga

adekvat bo'lgan, ko'p qirrali va kompleks yondashuv shakllanayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, amaldagi normativ-huquqiy reglamentatsiyaning dinamik rivojlanishiga qaramay, iqtisodiy zo'ravonlik fenomeni bilan bog'liq ayrim tizimli va amaliy muammolar o'z dolzarbligini yo'qotmagan holda saqlanib qolmoqda. Xususan, huquqiy germeenitika nuqtai nazaridan, ushbu tushunchaning ayrim yuridik jihatlarini amaliyotda diskret tarzda talqin etilishi, uning identifikatsiya mezonlarining yetarli darajada operatsionallashtirilmaganligi, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotida empirik-statistik ma'lumotlarning fragmentar va cheklanganligi mazkur sohada eng o'tkir muammolar qatoriga kiradi.

Bundan tashqari, iqtisodiy zo'ravonlik holatlarining aksariyati yuqori darajadagi latent (yashirin) xususiyatga ega bo'lganligi sababli, jabrlanuvchilarning viktimologik faolligi, ya'ni tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Ma'lum holatlarda, jabrlanuvchilarning chuqur iqtisodiy dependensiyasi, jamiyatda shakllangan ijtimoiy-psixologik stereotiplar hamda huquqiy ong va savodxonlikning yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu salbiy holatlarni o'z vaqtida aniqlash va ularga tegishli huquqiy kvalifikatsiya hamda baho berish jarayonlarini sezilarli darajada murakkablashtirmoqda [17].

Tadqiqot jarayonida erishilgan ilmiy xulosalar shuni dalillaydiki, iqtisodiy zo'ravonlik fenomeniga qarshi kurashishning funksional samaradorligi faqatgina normativ-huquqiy mexanizmlarning mavjudligi bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, ushbu yuridik instrumentlarning jamiyatdagi faol ijtimoiy institutlar va ustuvor aksiologik tizimlar bilan sinergetik uyg'unlikda va o'zaro integrativ holatda faoliyat yuritishiga bevosita bog'liqdir. Amaldagi huquqni qo'llash amaliyotining chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tajovuzkorlikning prevensiyasi va unga qarshi kurashish jarayonida yakkagina qonun-qoidalar va yuridik normalarga tayanish yetarli darajadagi natijadorlikni ta'minlay olmaydi. Ushbu murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon iqtisodiy, sotsial, madaniy va ma'naviy-axloqiy omillarning o'zaro determinatsiyasi hamda dinamik o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan ko'p qirrali, murakkab tuzilgan ijtimoiy makrotizim sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur epistemologik va amaliy tahlillar natijasida iqtisodiy zo'ravonlik fenomeniga qarshi kurashishning ijtimoiy-huquqiy fundamentlarini takomillashtirish maqsadida ushbu jarayonning uchta o'zaro bog'liq komponentdan iborat integrallashgan konseptual modelini ishlab chiqish va taklif etish ilmiy jihatdan asoslangan deb hisoblanadi. Ushbu modelning metodologik poydevori normativ-huquqiy, institutsional va aksiologik tizimlarning dialektik o'zaro bog'liqligi va sinergetik hamkorligiga asoslanadi.

Modelning birinchi va bazaviy komponenti – bu normativ-huquqiy reglamentatsiya mexanizmlari tizimidir. Mazkur tizim iqtisodiy tajovuzkorlikning preventiv va repressiv chora-tadbirlariga qaratilgan qonunchilik bazasi, fundamental huquqiy kafolatlar, protektiv orderlar, yuridik javobgarlikning muqarrarligini ta'minlovchi choralar, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotining butun majmuasini o'z ichiga qamrab oladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari shuni dalillaydiki, O'zbekiston Respublikasida ushbu sohaga oid qonunchilik bazasi dinamik va izchil evolyutsion rivojlanishni namoyon etayotgan bo'lsa-da, iqtisodiy zo'ravonlikning ayrim spesifik ko'rinishlarini yuridik-kategorial jihatdan yanada aniqroq delimitatsiya qilish zarurati dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, oilaviy munosabatlarda iqtisodiy dominatsiya, moliyaviy dependensiya holatlarini sun'iy ravishda shakllantirish, shuningdek, shaxsning iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini cheklash bilan bog'liq holatlarni identifikatsiya qilishning aniq mezonlarini ishlab chiqish va ularni qonunchilikda operatsionallashtirish ilmiy-amaliy jihatdan mutlaqo maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot doirasida ajratib ko'rsatilgan ikkinchi muhim tarkibiy qism – bu institutsional-funksional mexanizmlar tizimidir. Ushbu komponent iqtisodiy zo'ravonlik fenomeniga qarshi kurashish jarayonida ishtirok etuvchi davlat boshqaruvi organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro sinergetik faoliyatini o'zida mujassam etadi. Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni dalillaydiki, Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi, mahalla fuqarolar yig'inlari, ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ushbu salbiy hodisaning prevensiyasi va uning destruktiv oqibatlarini minimallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ayrim vaziyatlarda mazkur subyektlar o'rtasidagi axborot-kommunikativ almashinuv va o'zaro hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi muammoni kompleks va tizimli yechish jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu epistemologik va amaliy nuqtai nazardan, iqtisodiy zo'ravonlikka oid murojaatlarni qabul qilish, himoya orderlarini ijro etish, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va reabilitatsiya jarayonlarini o'zaro

uzviy bog'lovchi yagona, ko'p darajali koordinatsion-institutsional tizimni shakllantirish va rivojlantirish mutlaqo maqsadga muvofiqdir. Mazkur integrativ yondashuv nafaqat davlat organlari, balki fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining funksional samaradorligini tubdan oshirishga, shuningdek, institutlararo uzluksiz hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Modelning uchinchi va nihoyatda muhim tarkibiy qismi – bu aksiologik, ya'ni ma'naviy-qadriyatlar tizimiga asoslangan regulativ mexanizmlardir. Olib borilgan ilmiy-falsafiy kuzatuvlar shuni dalillaydiki, iqtisodiy zo'ravonlik fenomenining genezisi nafaqat huquqiy bo'shliqlar, balki jamiyat ongida ildiz otgan ijtimoiy-psixologik stereotiplar, arxaik an'anaviy qarashlar va gender rollarining noto'g'ri interpretatsiyasi kabi ma'naviy-axloqiy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, ushbu salbiy hodisaga qarshi kurashish strategiyasi yakkagina repressiv yoki huquqiy ta'sir choralariga tayanib qolmasligi, balki jamiyatda iqtisodiy avtonomiya, o'zaro hurmat, jinslararo tenglik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fundamental aksiologik qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilishi zarur.

Ushbu vazifalarni amaliyotda ro'yobga chiqarishda ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari (OAV), mahalla institutlari va fuqarolik jamiyati tuzilmalarining gumanitar-ma'rifiy salohiyatini safarbar etish va kuchaytirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh avlod va oilaviy muhitda moliyaviy-iqtisodiy savodxonlikni yuksaltirish, oilaviy resurslarni (byudjetni) boshqarish bo'yicha amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish, shuningdek, gender tengligi madaniyatini sotsializatsiya qilish jarayonlarini faollashtirish iqtisodiy zo'ravonlikning preventiv mexanizmlarining eng samarali va barqaror omillaridan biri hisoblanadi.

Olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari shuni dalolatlaydiki, iqtisodiy zo'ravonlik fenomeniga qarshi kurashishning samarali modeli normativ-huquqiy, institutsional va aksiologik komponentlarning chuqur integrativ sinergiyasiga asoslanishi shart. Mazkur strukturaviy elementlarning birortasini izolatsiya qilingan holatda qo'llash, ya'ni reduksionistik yondashuv, ushbu murakkab ijtimoiy muammoni to'liq bartaraf etishga qodir emas. Faqatgina ushbu komponentlarning funksional uyg'unligi va o'zaro determinatsiyasi iqtisodiy zo'ravonlikning kausal bog'liqliklariga kompleks va tizimli ta'sir ko'rsatish imkonini yaratadi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-nazariy va empirik tadqiqotlar natijalari iqtisodiy zo'ravonlik fenomenining zamonaviy sotsiumda oilaviy institutning barqarorligiga destruktiv ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy va aksiologik hodisa ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan gnoseologik va amaliy tahlillar negizida quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi:

Iqtisodiy zo'ravonlik oilaviy tajovuzning avtonom va mustaqil shakli sifatida namoyon bo'lib, u subyektning moliyaviy resurslarga nisbatan egalik huquqini, ulardan erkin foydalanish hamda mustaqil iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini restriksiya (cheklash) qilish orqali realizatsiya bo'ladi. Bu jarayon insonning fundamental huquqlari, gender adolati va ijtimoiy tenglik tamoyillarining buzilishiga olib keladigan deformatsiyalashgan ijtimoiy munosabatlardir.

Iqtisodiy zo'ravonlikning ijtimoiy-ontologik mohiyati moliyaviy resurslar ustidan monopol nazorat o'rnatish orqali shaxsni qaram holatga keltirish bilan tavsiflanadi. Shu sababli, u nafaqat iqtisodiy, balki chuqur sotsial, huquqiy va ma'naviy-axloqiy oqibatlarga ega bo'lgan ko'p qirrali hodisa hisoblanadi.

Xalqaro huquqiy diskursdagi hujjatlar, xususan, CEDAW Konvensiyasi, Pekin Harakatlar Platformasi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) hamda Istanbul konvensiyasi iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning universal aksiologik va huquqiy tamoyillarini shakllantirgan bo'lib, ular milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish uchun mustahkam metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning normativ-huquqiy bazasi so'nggi yillarda dinamik va izchil takomillashtirildi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun hamda oilaviy zo'ravonlikka oid yangi huquqiy institutlar mazkur sohada davlat siyosatining institutsional fundamentlarini mustahkamladi.

Tadqiqot natijalari iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning funksional samaradorligi faqatgina repressiv (jazolash) choralarga emas, balki davlat boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla tizimining o'zaro sinergetik hamkorligiga bevosita bog'liq ekanligini isbotladi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi kurashishning normativ-huquqiy, institutsional va aksiologik (qadriyatli) komponentlarini o'zida mujassam etgan yangi ijtimoiy-huquqiy model ishlab chiqildi. Mazkur konseptual model iqtisodiy zo'ravonlikning kausal (sabab-oqibat)

bog‘liqliklariga kompleks va tizimli ta’sir ko‘rsatish imkoniyati bilan ilmiy ahamiyatga ega.

Iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashishning uzoq muddatli va barqaror samaradorligi jamiyat ongida iqtisodiy avtonomiya, gender tenglik, o‘zaro hurmat va oilaviy mas’uliyat kabi fundamental qadriyatlarni sotsializatsiya qilish bilan uzviy bog‘liqdir.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy-ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- iqtisodiy zo‘ravonlikning yuridik-kategorial mezonlarini yanada aniq delimitatsiya qilish va huquqni qo‘llash amaliyotida unifikatsiyalashgan talqin etish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- iqtisodiy zo‘ravonlik holatlarini monitoring qilish hamda statistik hisobga olishning yagona raqamli (elektron) axborot tizimini joriy etish;
- iqtisodiy zo‘ravonlik qurbonlarini iqtisodiy reabilitatsiya qilish va ularning moliyaviy mustaqilligini tiklashga qaratilgan davlat dasturlarini kengaytirish va diversifikatsiya qilish;
- ta’lim-tarbiya muassasalari, mahalla institutlari va ommaviy axborot vositalari orqali moliyaviy-iqtisodiy savodxonlik hamda gender tenglik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy (aksiologik) tadbirlarni tubdan kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashishning ijtimoiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish oilaviy munosabatlarning barqarorligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishning eng muhim ontologik shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adams A.E., Sullivan C.M., Bybee D., Greeson M.R. Development of the Scale of Economic Abuse // *Violence Against Women*. – 2008. – Vol. 14, No. 5. – P. 563–588.
2. Postmus J.L., Plummer S.B., McMahon S., Zurlo K.A. Economic Abuse as an Invisible Form of Domestic Violence // *Journal of Interpersonal Violence*. – 2012. – Vol. 27, No. 3. – P. 411–430.
3. Stylianou A.M. Economic Abuse Within Intimate Partner Violence: A Review of the Literature // *Violence and Victims*. – 2018. – Vol. 33, No. 1. – P. 3–22.
4. Sharp-Jeffs N. A Review of Research and Policy on Economic Abuse within Intimate Partner Relationships. – London: Child and Woman Abuse Studies Unit, 2015. – 68 p.
5. Chung D., Postmus J.L., Wang L. Economic Abuse and Financial Empowerment: A Review of the Literature // *Affilia: Journal of Women and Social Work*. – 2021. – Vol. 36, No. 3. – P. 315–329.
6. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
7. Bourdieu P. Masculine Domination. – Stanford: Stanford University Press, 2001. – 144 p.
8. United Nations. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). – New York: United Nations, 1979.
9. United Nations. Declaration on the Elimination of Violence against Women. A/RES/48/104. – New York: United Nations, 1993.
10. United Nations. Beijing Declaration and Platform for Action. – Beijing: Fourth World Conference on Women, 1995.
11. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2015.
12. UN Women. Progress of the World's Women: Transforming Economies, Realizing Rights. – New York: UN Women, 2015. – 284 p.
13. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
14. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – O‘RQ–561. – 2019-yil 2-sentabr.
15. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – O‘RQ–562. – 2019-yil 2-sentabr.
16. O‘zbekiston Respublikasining “Ayrim qonun hujjatlariga xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. – O‘RQ–829. – 2023-yil 11-aprel.
17. Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti. O‘zbekistonda gender tenglik va oilaviy munosabatlar bo‘yicha tahliliy materiallar. – Toshkent, 2023. – B. 1–100.